


O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70812304 - *Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent-2023



**ISHLAB CHIQLANGAN:**

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 08 dagi 367 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «2»

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i> .....	4
1.2.3.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar</i> .....	8
2.3.2.	<i>70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi</i> .....	8
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10
	Kelishuv dalolatnomasi.....	11

## **1. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70812304 - *Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari** – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, suv xo'jaligi, turli suv bilan ta'minlanganlik sharoitlarida aholi yashash joylari va ishlab chiqarish punktlarini talab darajasidagi suv bilan ta'minlovchi injenerlik tizimlari, inshootlari va tadbirlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish, suv sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, suv va boshqa resurslardan unumli foydalanish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- aholi yashash joylari va ishlab chiqarish punktlarining xo'jalik - ichimlik va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiruvchi suv ta'minoti tizimlari,
- kanalizatsiya va ularni ekspluatatsiya qilish tizimlari,
  - yaylovlar suv ta'minoti tizimlari va manbalari,
  - suv ta'minoti sohasida ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlari, ularning konstruksiyalari,
  - texnologik jarayonlari va jihozlari,

- suv sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,
- ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ilmiy va texnik loyihalari;

*Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.*

*70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistr bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.*

**1.2.3. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyati.

**1.2.4. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

*70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:*

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Loyiha-konstruktorlik faoliyatda:**

- -kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;
- -kasbiy faoliyat doirasida tizimli tahlil asosida loyihalash faoliyati;
- -rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida suv ta'minoti ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish texnologiyalarini yaratishda ilmiy - texnik muammolarni tahlil qilish va maqsad hamda vazifalarni aniqlash;

- raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash, ishlab chiqilgan mahsulotlar va programma vositalarni joriy etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

**Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llashi;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanishi;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:**

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

**2. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari qurilishini amalga oshira bilishi, tizimlar ekspluatatsiyasi va ularni avtomatlashtirish, suv ta'minoti va kanalizatsiya sohasida ilmiy – texnik rivojlanishning asosiy yo'nalishlari va usullari, suv ta'minoti holatini yaxshilash maqsadida mavjud vodoprovodlarini o'rganish, sifatli ichimlik suvini tayyorlashning usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari xaqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirilgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tavsiflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- patent olish uchun me'yoriy ish hujjatlar tayyorlay olishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy** va **tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura ta'lim mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot (stajirovka) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy izlanishlarni o'tkazish ko'nikmalarini ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**2.3.1. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	960	32
Tanlov fanlar	540	18
Ilmiy faoliyat	2100	70

**2.3.2. 70812304 - Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muhandislik tizimlari va inshootlari magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.p.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>960</b>	<b>32</b>	
1.01	ITM5104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	STOSCh 5104	Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini loyihalashtirish va zamonaviy texnologiyalarini tadbiiq etish.	240	4	1
1.03	STOST 5108	Suv ta'minoti va oqova suvlarni tozalash jarayoniga energiya va resurs tejovchi texnologiyalarini jalb qilish.	240	8	1,2
1.04	IOSCh5108	Ichimlik va oqova suvlarni chiqarib yuborish soxasida huquqiy-me'yoriy ta'minoti	120	8	1,2
1.05	IOSChSIQ 5104	Ichimlik va oqova suvlarni chiqarib yuborish soxasini islox qilish.	120	4	2
1.06	TO'S6104	Tajriba o'tkazish va sinash	60	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (4 ta fan)</i>	540	18	1,2,3
		<b>Jami</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>			
3.01	IMD5332	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	960	32	1,2,3,4
3.02	IPS5308	Ilmiy pedagogik ish va ilmiy seminar	240	8	1,2,3
3.03	PR6330	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	900	30	2,4
		<b>Jami</b>	<b>2100</b>	<b>70</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya:** Suv ta'minoti va inshootlari muhandisi, tadqiqotchi pedagog



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, loyihalash va tashkil etish, suv ta'minoti, texnologiya, suv ta'minoti muhandislik tizimi, loyihaviy-konstruktorlik, eksperimental-tadqiqiy, ishlab chiqarish turlari, texnologik faoliyat, eksperimental izlanish, suv iste'moli, me'yor, obodonchilik darajasi, ishlab chiqarish korxonalari, erkin bosim, bino qavati, bosim isrofi, suv manbai, ichimlik suvi, suv sifati, suvning qattiqligi, minerallashtirish darajasi, pH ko'rsatkichi, bakterialogik ko'rsatkichi, ichak tayoqchalari, koliindeks, tiniqlashtirish, tindirish, fil'trlash, chuchuklashtirish, zararsizlantirish, yumshatish, vodoprovod tarmog'i, xalqasimon, shoxsimon, joy relyefi, planirovka, kommunikatsiyalar, bosimli rejim, to'la bosim, gidravlik hisob, quvurlar diametri, suv xarakati tezligi, bosimli suv minorasi, pnevmonasos qurilmasi, toza suv rezervuarlari, birinchi va ikkinchi suvni ko'tarish nasos stansiyalari, guruhlashtirilgan vodoprovodlar, korxonalar suv ta'minoti.